**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Mukamedov
_______________
2024 yil "___" ___08

# TIL NAZARIYASI
## O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta'lim

**Ta'lim sohasi:** 110000 – Ta'lim

**Ta'lim yo'nalishi:** 60110700 – O'zbek tili va adabiyoti

**Chirchiq – 2024**

| Fan/modul kodi<br>TN1805 | O‘quv yili<br>2026-2027 | | Semestr<br>8 | ECTS - Kreditlar<br>5 |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta’lim tili<br>O‘zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Tilshunoslik nazariyasi | 60 | 90 | 150 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni tilshunoslikning nazariy masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilning ijtimoiy taraqqiyoti, til va jamiyat, til va tafakkur munosabati, til sathlari, dunyo tillari tavsifi, tasnifi, tilshunoslik maktablari, lingvistik tahlil metodlari va til strukturasi haqida ma’lumot berish hamda o‘zbek tilshunosligi fanlarini o‘rganish uchun poydevor yaratishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, tilshunoslikning nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanni o‘qitishning vazifasi – talabalarga tilshunoslik nazariyasi va amaliyotiga oid bilim berish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilishga o‘rgatish va pirovardida ularni tilshunoslik asoslari, umumiy tilshunoslik va o‘zbek tilshunosligi sohalari bilan munosabatlarini bilish, ularga xos hodisalarning modellarini tuzish, tekshirish va tushuntira olishga o‘rgatishdir.

**II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Tilshunoslik nazariyasi fanining maqsad va vazifalari.**
Tilshunoslik nazariyasi fanining maqsad va vazifalari, tishunoslikka oid boshqa fanlardan farqi. Tilning ta’riflari.. Tilshunoslik nazariyasi fanining ilmiy-nazariy, falsafiy fan ekanligi..

**2-mavzu. Tilshunoslik nazariyasi fanining tarixi.**
Tilshunoslikning nazariy masalalari va lisoniy tahlil usullari.

**3-mavzu. Qadimgi hind va xitoy tilshunosligi.**
Hindlarning qadimgi tilshunoslari. Ularning fonetikachi va grammatikachilari.

**4-mavzu. Vedalar. Panini grammatikasi.**
Sanskrit va Qadimgi Xitoy tilshunosligi haqida ma’lumot berish.

**5-mavzu. Qadimgi tilshunoslik.**
Qadimgi Yunon va Rim tilshunosligi. Yunon tilshunosligining ikki davri:

falsafiy va grammatik davrlari.

**6-mavzu. Qadimgi Rim grammatikasi.**

Rim grammatikasining grek grammatikasining shahobchasi sifatida maydonga kelishi bilan tanishtirish. Qadimgi Rim tilshunoslari asarlari bilan talabalarni tanishtirish.

**7-mavzu. Arab tilshunosligi.**

Kufa va Basra maktablari. Ushbu maktab vakillari, ularning tadqiqotlari. Sibavayxiyning "Al Kitobi".

**8-mavzu. Arab tilshunosligining tuzilishi.**

Rasmul xat (grafika), tajvid (orfoepiya), sarf (morfologiya), naxv (sintaksis), ilmul Lug'at (leksikografiya va leksikologiya), ilm-ul manoiy (semasiologiya), ilm-ul bayon (uslubshunoslik) va boshqalar.

**9-mavzu. Arab tilshunosligining rivojida Markaziy Osiyolik allomalarning o'rni.**

Markaziy Osiyolik allomalarning lisoniy merosi haqida ma'lumot berish.

**10-mavzu. Uyg'onish davri tilshunosligi.**

Evropada uyg'onish davridagi tilshunoslik. Komparativistika. Rus tilshunosligi. M.V.Lomonosov asarlari.

**11-mavzu. Komparativistika.**

V.fon Gumboldt ta'limoti. Naturalizm, Psixologizm oqimlari. F.de Sossyur ta'limoti haqida ma'lumot berish.

**12-mavzu. Zamonaviy tilshunoslik.**

Tilshunoslikning nazariy masalalari. "Lingvistika" termini. Lingvistika turlari. Tilning ta'riflari. Substansiya va forma.

**13-mavzu. Atomistik va struktural lingvistika.**

Ichki va tashqi lingvistika, makro- va mikrolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika tushunchalari, ularning mohiyati. Tilning ta'riflari haqida ma'lumot berish. Substansiya va forma haqida ma'lumot berish.

**14-mavzu. Til va nutq.**

Til va nutq birliklari. Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. Tilning o'z vazifasini nutq orqali amalga oshirishi. Tilning imkoniyat, nutqning esa voqelik ekanligi.Til va nutqning ham ijtimoiy, ham individual xarakteri haqida ma'lumot berish. Tovush va fonema, ularning o'zaro munosabati. Fonema haqidagi fikrlar. So'z va u haqdagi fikrlar.

**15-mavzu. Leksema, morfema, so'z birikmasi va gap nazariyasi.**

Leksema, morfema, morf, allomorf, ularning mohiyati, vazifasi, xususiyatlari. So'z birikmasi va gap, ularning vazifasi, o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Tilshunoslik tarixi, maktablari.
2. Hind va Yunon tilshunosligi.

3. Arab tilshunosligi.
4. O'rta Osiyoda tilshunoslik.
5. Komparativistika.
6. Naturalizm, psixologizm.
7. Sossyur ta'limoti.
8. Til va nutq.
9. Substansiya va forma. Sistema va struktura.
10. Til va nutq birliklari.
11. Til belgilar sistemasi. Tilning ikki jihati.
12. Paradigmatika va sintagmatika.
13. Tipologiya. Lisoniy metodlar.
14. Zamonaviy tilshunoslik.
15. Diaxron tadqiqot metodlari. Sinxron tadqiqot metodlari.
16. Paralingvistika.
17. Leksema, morfema, so'z birikmasi va gap nazariyasi.
18. Uyg'onish davri tilshunosligi.
19. So'z va u haqdagi fikrlar.
20. So'z birikmasi va gap
21. Leksema, morfema, morf, allomorf, ularning mohiyati, vazifasi, xususiyatlari.
22. Ichki va tashqi lingvistika
23. Fonema haqidagi fikrlar.
24. Tovush va fonema, ularning o'zaro munosabati.
25. Lingvistika turlari.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**
1. Jahon tilshunosligining tarixiy bosqichlari .
2. Qadimgi hind tilshunosligida lug'atchilik.
3. Qadimgi Yunon tilshunosligida analogiya va anomaliya masalalari.
4. Markaziy Osiyolik allomalarning lisoniy merosi.
5. Strukturalizmning klassik maktablari.
6. Tillarda fonemalar umumiyligi va xususiyligi.
7. Leksikaning zamonaviy va tarixiy qatlamlari.
8. Sintaktik shakllar.

| | |
|---|---|
| | 9. Sintaksisning zamonaviy yo'nalishlari.<br>10. Matn sintaksisi.<br>11. Tilshunoslikda zamonaviy yo'nalishlar.<br>12. Tilni o'rganish metodlari.<br>13. Tillarning shakllanishi va rivojlanishi<br>14. Tillarning tipologik tasnifi<br>15. Lingvistik tahlil metodlari. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br><br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>- Tilshunoslik nazariyasi fanining asosiy elementlari<br>- tilning mohiyati, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan bog'liqligi;<br>-til insoniyatning eng muhim aloqa vositasi ekanligi;<br>-fikr almashinuv (kommunikatsiya) va uning asosiy vositalari;<br>tilning paydo bo'lishi;<br>-tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanish qonuniyatlari;<br>- O'zbekiston va xorijiy davlatlarda nashr qilingan ilmiy adabiyotlar;<br>o'rganilayotgan chet tilidan ona tilining xususiyatlarini ajratish:<br>lingvistika turlari va lingvistik metodlarga oid boshlang'ich ma'lumotlar to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;*** **(bilim)**<br>- jahon tilshunosligining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, tilshunoslik maktablari, tilshunoslikning nazariy masalalari, tilshunoslik metodlarini ***bilishi;***<br>- muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish;<br>- o'zbek tilining uslubiga xos asosiy xususiyatlarni farqlash. ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.*** **(ko'nikma).**<br>-- o'z nuqtai nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana bilish ***malakalariga ega bo'lishi;***<br>- o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari va uning grafik sistemasi to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***<br>- o'zbek tilining funksional uslublarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;***<br>- o'zbek tilining uslubiga xos asosiy xususiyatlarni farqlash. ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.*** o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari va uning grafik sistemasi to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***<br>- o'zbek tilining funksional uslublarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi lozim.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br><br>• Ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar; |

| | |
|---|---|
| | • bahs-munozara, tezkor savol-javoblar;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• konferensiya metodi;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish metodi va boshqalar |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**<br><br>**Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. - Toshkent: O'zbekiston, 2002.<br>2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (Tilshunoslik tarixi. 1-qism). – Toshkent: 2005.<br>3.Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (Tilshunoslikning nazariy masalalari. 2-qism). – Toshkent: TDPU, 2006.<br>4. Rasulov R.Umumiy tilshunoslik. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.<br>2. Rasulov R. O'zbek tili fe'llarining ma'no tuzilishi. - Toshkent: TDPU, 2005.<br>3. Muhamedova S. O'zbek tilida harakat fe'llarining semantikasi va valentligi.- Toshkent.: Fan, 2005.<br>6. Нурмонов. А. Танланган асарлар. I, II, III жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012.<br>7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.<br>8. Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya (o'quv qo'llanma). –Toshkent: 2001.<br>9. Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar (o'quv qo'llanma). – Toshkent: 2001.<br>10. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: 2002.<br>11. Киттель Ч. Элементарная статистическая физика. ИЛ - 1980. |

| | |
|---|---|
| | 12. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o zbek tili (darslik). – Toshkent: 2006.<br>13. Mirtojiyev M., Muhamedova S. O'zbek tilida so'z valentliklari (monografiya). – Toshkent: 2014.<br>14. Ferdinand de Saussure (Translated by Wade Baskin). Course in General Linguistics. –New York City, Columbia University Press, 2001.<br>15. Andrew Radford, Martin Atkinson, David Britain, Harald Clahsen, Andrew Spencer. Linguistics. An introduction. -New York, Cambridge University Press, 2009. -447 p.<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. http://www.gov.uz<br>2. http://www.edu.uz<br>3. www.pedagog.uz<br>4. www.cspi.uz<br>5. www.natlib.uz<br>6. www.ziyonet.uz |
| 7. | **O'quv dasturi Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2024-yil "29" avgust dagi 1 sonli yig'ilish bayoni qarori bilan tasdiqlangan.** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>**A.Shofqorov** - Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**R. Rasulov** - Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori, professor;<br>**Sh.M.Yunusova** - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Umumiy tilshunoslik" kafedrasi dotsent v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori |